JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 5 - aprel 58-3-53-Q/23 Forish tuman hokimligi

Forish tumani ichki xo’jalik avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida, piyodalar o’tish joyi, yo’l belgilari, va sun`iy notekisliklar o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 28-son, 645-modda), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y.) ijrosini hamda tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Forish tumani ichki ishlar bo`limining 2022 yil 13 dekabrda 42/2266-sonli xati ma`lumot uchun qa`bul qilinsin va maqullansin.

2. Forish tumani Egizbuloq MFY hududlariga ilovaga muvofiq piyodalar o`tish joyi yo‘l belgilari va sun`iy notekislik o‘rnatilsin.

3. Tuman “Yo`llardan foydalanish” UK (F.Hakimov) tuman hududidagi “Egizbuloq” MFY hududlariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi

O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXB (V.Xusanov) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

6. Ushbu qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **I.Matiyev**

Forish tuman hokimining
2023 yil 5 apreldagi
58-3-53-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Forish tumanida ichki xojalik yo`llaridajoylashgan maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari joylashgan ko’chalarga piyodalar o’tish joyi, yo’l belgilari,va sun`iy notekisliklar joylashuv dislokasiyasi

	MFY nomi	Ko`cha nomi	Joylashtirish joyi	Yo`l belgilari o`natiladigan ob’ekt nomi
1	Egizbuloq MFY	Bog`iston ko`chasi	PK:2000+800	9- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti ro`parasiga
2	Egizbuloq MFY	Bog`iston ko`chasi	PK:3000+100	15- sonli umumtalim maktabi ro`parasiga